

PAPER

NAVKENT QISHLOG‘I SHEVASIGA OID AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLAR

Ravshanova Madina Zafarjon qizi^{1,*}

¹University of Business and Science, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

* ravshanovamadinabonu05@gmail.com

Abstract

Bu maqolada Namangan viloyati Yangiyo‘rg‘on tumani Navkent qishlog‘i da uchraydigan ayrim shevaga xos so‘zlar guruhlangan holda misollar bilan izoh qilinadi.

Key words: sheva, dialektal so‘z, dialektal leksika, lahja, dialekt, xalq, xalq tili, adabiy til, fonetik xususiyat, leksema, lug‘at, atama, sinonim.

Kirish

O‘zbek tili qadim va boy tarixga ega tillardan biri sanaladi. O‘zbek tilini boyitib turgan, uning boqiyiligini ta‘minlayotgan kuchli lahjalarimiz va shevalarimiz bor. Professor S. Ashirboyevning fikricha: “Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma‘naviy qadriyat hisoblanadi. Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur”. Bugungi kunda o‘zbek tili shevalarini o‘rganilishiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlarida davlat tilini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zbek tilining qadimiy va boy sheva va dialektlarni chuqur o‘rganish, dialektlari xaritasini yaratish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Shevalar ona tilimizning asl mohiyatini dialektal so‘zlarini saqlab, talaffuzda ifodalaydi. O‘zbek xalq shevalari bugun o‘rganilmagan, balki qadimdan, ya‘ni Mahmud Qoshg‘ariylar davridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ammo shevalarimizning barcha leksik boyligini jamlovchi lug‘atlar yaratilmagan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” nomli dialektal lug‘atida olti yarim ming dona, 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalarining lug‘ati”da o‘n ikki ming dona o‘zbek shevalariga xos so‘zlar jamlangan. Bu esa juda kam so‘zlar yig‘ilganligini

ta’kidlashimizga majbur etadi. Shuning uchun shevalarimizning leksikasiga bu maqolamizda jiddiy e’tibor qaratdik.

Navkent qishlog‘i shevasidagi so‘zlar o‘zining adabiy tildagi muqobilidan fonetik, leksik jihatdan farqlanadi va ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

Table 1. Navkent qishlog‘i shevasida ishlatiluvchi shaxsni bildiruvchi so‘zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
bobo	1) <i>āpāddā</i> , 2) <i>ātātā</i> , 3) <i>kata</i> <i>ata</i>	singil	<i>ūka</i>
buvi	1) <i>āčā</i> , 2) <i>enā</i> , 3) <i>ānnā</i>	xolavachcha	<i>Jiyan</i>
ota	<i>đīdā</i> , <i>dedā</i>	turmusho‘rtiq	<i>Būlā</i>
ona	<i>Ābā</i>	chaqaloq	<i>čičī</i>
tog‘a	<i>kāttā dedā</i>	shafyor	<i>Šāpīr</i>
tog‘aning va amakining ayoli	<i>kāttā ābā</i>	militsiya	<i>Mīlīsā</i>

Table 2. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi narsa–buyumni bildiruvchi so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
beshlik	<i>pānšāxī</i>	telefon	<i>tilpān</i>
mantiqosqon	<i>list</i>	moshina	<i>māšnā</i>
tovog'i			
tahorat	<i>ābdāstā</i>	likopcha	<i>tālinkā</i>
choynak			
xontaxta	<i>xān</i>	soat	<i>sāhat</i>
so'ri	<i>krāvāt</i>	devor	<i>devāl</i>
non			
yopadigan	<i>rāpīda</i>	tufli	<i>tōplī</i>
yakando'z	<i>kōrpāčā</i>	finjon	<i>čashka</i>
cho'ntak	<i>chōnta</i>	oynak	<i>ajnāk</i>
ostona	<i>pāštān</i>	dastro'mol	<i>rōmālčā</i>
zinapoya	<i>pīlpājā</i>	sochiq	<i>čāčīq</i>
arava	<i>tāštki</i>	qo'lqop	<i>perāčtka</i>
jom	<i>lāgānčā</i>	tarozi	<i>tārāđī</i>
banka	<i>šišā</i>	televizor	<i>tīlīđōr</i>
chelak	<i>Pāqīr</i>	quluf	<i>qulf</i>
shag'am	<i>šām</i>	qisqich (zagolka)	<i>đakālka</i>
tuz idish	<i>tūzdiš</i>	koptok	<i>tōp</i>
bolish, yosti	<i>Jāstīy</i>	qo'g'irchoq	<i>qog'īččaq</i>
sholcha	<i>Ālāčā</i>	ro'mol	<i>lōngī</i>
shisha	<i>Īššā</i>	soya	<i>kōlānkā</i>
piyola	<i>pe:lā</i>	ustki kiyim	<i>engīl</i>
kosa	<i>Čīnī</i>	krant	<i>krān</i>
scho'chik	<i>učōčīk</i>	g'isht	<i>g'īš</i>
sumka	<i>pāpkā</i>	nimcha	<i>kāmđīl</i>
tarnov	<i>tānnāv</i>	ko'ylak	<i>kōjnā:</i>
ko'ylak	<i>kōjnāj</i>	tomsuvoq	<i>lāysuvāq</i>

Table 3. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi tana a'zolari bilan bog'liq so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
boshim	<i>bašīm</i>	burnim	<i>mūnnīm, būnnīm</i>
tirnoq	<i>tīnnā:</i>	tirsak	<i>čekānā:</i>
yalangoyoq	<i>yālāntājā:y</i>	boshning chakkasi	<i>Čōqqī</i>
bosh	<i>Kāllā</i>	soch	<i>Čāč</i>
yelka	<i>ūčām</i>	eng kichkina barmoq	<i>jīmīlāq</i>

Table 4. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
buzoq	<i>bōđā:</i>	chayon	<i>gāđāndā</i>
qo'zichoq	<i>bābāčāq</i>	kabutar	<i>Kāptār</i>
mushuk	<i>mīšak</i>	musicha	<i>mūkičā</i>
kaltakesak	<i>kālpīstā</i>	qo'ytezagi	<i>čalma</i>
chumoli	<i>čīmāliq</i>	moltezagi	<i>tāppī</i>

O'zbek tili dunyo tillari orasida o'zining boy grammatik hamda leksik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Tilimizning shevaga xos leksik qatlamida amalga oshirilayotgan izlanishlarni olib borilayotgan tadqiqotlar misolida ko'rishimiz mumkin. Har

Table 5. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi oziq–ovqat nomlari bilan bog'liq so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
lag'mon	<i>makran</i>	sabzi	<i>Sāvđī</i>
ayron	<i>čōlāp</i>	tuzqand	<i>āqqānd</i>
kartoshka	<i>kātiškō</i>	suzma	<i>syzma</i>
pomidor	<i>pātīnžān</i>	palov	<i>Āš</i>
sarimsoqpiyoz	<i>čīsnāk</i>	xonim	<i>ōrāmā manti</i>
go'sht	<i>Gōš</i>	garmdori	<i>atām</i>
shaftoli	<i>šāptālī</i>	rayxon	<i>rejxān</i>
pechenye	<i>pečennīk</i>	bulg'or qalampiri	<i>bālgār</i>

Table 6. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi o'rin–joy otlari

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
hovli	<i>havli</i>	hovlining orqa tomonidagi yer	<i>Hājāt</i>
tovuqxona	<i>kātāk</i>	padval	<i>1) tōlā, 2) jertōlā</i>
qo'yxona	<i>qōrā</i>	ayvon	<i>Rām</i>
uy	<i>ō:j</i>	bozor	<i>Gūđār</i>
qabriston	<i>dāšt</i>	molxona	<i>āyīlxānā</i>
hovlining oxirgi qismi	<i>etāk</i>	ichkarixona	<i>gi ōj</i>

Table 7. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi belgi–xususiyat bildiruvchi so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
xunuk	<i>xūnō</i>	mast	<i>ālkāš</i>
ozg'in	<i>āriq</i>		

Table 8. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi harakat va holatni bildiruvchi so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
borishim	<i>berīšīm kerā:</i>	qo'rqaman	<i>qōqāmān</i>
kerak			
gaplashmoq	<i>gūrūnīlāšmāq</i>	hammomga bormoq	<i>kīnnīgānī bārmāq</i>

Table 9. Navkent qishlog'i shevasida ishlatiluvchi yo'nalish bildiruvchi so'zlar

Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda	Shevada
mana shu yerda	<i>māšajdā</i>	buyoqqa kel	<i>bāqāke:</i>
shu yerda	<i>šejdā</i>	mana bu yerga kel	<i>mānījgā ke:</i>
uyoqqa ketdi	<i>āqāketī</i>	shu yerdaman	<i>šettāmān</i>
mana bu yerda	<i>mānījdā</i>	narigi yoqqa ketdi	<i>nārīrāqqā ketdī</i>
buyoqqa qara	<i>bāqqārā</i>	qayerdasan	<i>qāttāsān</i>

qanday xalq o'z shevasi leksik qatlamini tadqiq qilish, shu xalqning tarixidan dalolat beruvchi qimmatbaho materiallardir. Biz maqolamizda keltirib o'tgan Navkent qishlog'i shevasiga oid so'zlar kelajakda adabiy tilimizning ichki boyishi, o'zbek tili shevalarini o'rganilishida asos bo'lib xizmat qiladi degan

umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176-b.
2. Darvishev I. Areal tilshunoslik: Janubiy-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – 148 b.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Navro'z, 2013.